

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy yutuqlari ko'rgazmasi o'tkazildi

Joriy yil 19-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan ilk bor Fanlar akademiyasi ilmiy yutuqlari ko'rgazmasi o'tkazildi.





Ushbu ko'rgazmani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad - mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan, qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati, tog'-konchilik, farmatsevtika sohalarini rivojlantirishdagi salmoqli ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda yangi texnologiyalarni tadbiiq etish, mavjudlarini takomillashtirish, FA ilmiy ishlanmalari bilan keng jamoatchilikni tanishtirish.

Ko'rgazmada Fanlar akademiyasi olimlarining 200 ga yaqin ishlanmalari namoyish etildi. Jumladan, Fanlar akademiyasi hududiy bo'limlari - Xorazm Ma'mun akademiyasi, Qoraqalpog'iston hamda Navoiy bo'limlari, fizika-matematika, texnika, kimyo-biologiya yo'nalishlarida qishloq xo'jaligi, kimyo, farmatsevtika sanoati uchun ishlanmalari va gumanitar yo'nalishdagi ilmiy muassasalar hamda muzeylarning monografiyalari, kitob-albomlari, darsliklari o'rin egallagan.





Shuningdek, ko'zrgazmada xorijiy davlatlar elchixonalari, yirik sanoat korxonalari hamda qishloq xo'jaligi, 10 dan ortiq vazirlik va idoralar vakillari etdi.

Mazkur ko'rgazma olimlar tomonidan yaratilayotgan ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish, so'nggi ilmiy ishlar natijalari bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash imkonini beradi.